O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 27 - noyabr 411-11-0-Q/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

Farg‘ona shaharidagi bo‘sh turgan bino-inshootlardan samarali foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4231-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 9,25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. “Buildtech stroy” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2023-yil 13-noyabr kungi 14-son murojaati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona shahar Universitet ko‘chasida joylashgan Farg‘ona shahar hokimligi balansidagi bo‘sh turgan bino-inshootlarga 2,5 milliard so‘m investitsiya kiritish, tikuvchilik faoliyatini tashkil etish va 10 tadan kam bo‘lmagan yangi ish o‘rinlari yaratish sharti bilan “Buildtech stroy” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga doimiy muddatga foydalanish huquqi bilan biriktirib berilsin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, “Buildtech stroy” mas’uliyati cheklangan jamiyati obyekt negizida investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida quyidagi investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

obyektga kamida 2,5 milliard so‘m miqdorida investitsiya kiritish;

tikuvchilik faoliyatini tashkil etish;

kamida 10 ta yangi ish o‘rinlari yaratish.

4. Farg‘ona viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari (Sirojitdinov) Farg‘ona shahar hokimligi (Nazarov) bilan birgalikda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar bajarilishi yuzasidan monitoring yuritilishi ta’minlasin.

5. Kadastr agentligini Farg‘ona viloyat boshqarmasi (Mashrapov) Farg‘ona shahar hokimligi (Nazarov) bilan birgalikda obyektga biriktirib berilgan yer maydoniga aniqlik kiritsin hamda tegishli tartibda kadastr hujjatlarini tayyorlasin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Farg‘ona viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**